DOI

Qosimov S.A.
Jizzax viloyati Yangiobod tumani kasb hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

KASB-HUNAR MAKTAB O‘QUVCHILARI ONGIDA “OMMAVIY MADANIYAT”GA QARSHI KURASHISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya
Maqolada yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishning ijtimoiy va pedagogik usullari tahlil qilib berilgan. Shuningdek, ularga qarshi milliy-ma’naviy mafkuraning prinsiplari ko‘rsatib berilgan.
Kalit so‘zlar: *Jamiyat, Globallashuv, Axbortalashuv, Ommaviy madaniyat, rok musiqalar, Vatan*

VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS CONSIDER PUBLIC FACTORS OF FORMING IDEOLOGICAL IMMUNITY IN THE FIGHT AGAINST CULTURE

Abstract
The article analyzes the social and pedagogical methods of protecting young people from the negative effects of "mass culture". Also, the principles of national-spiritual ideology against them have been shown.
Key words: *Society, Globalization, Information, Popular culture, rock music, Homeland*

Jamiyat taraqqiyoti falsafadagi qonununiyatlar singari doim harakatda bo‘ladi. Harakat esa fizikaviy hodisadir. Biz yashayotgan yer sayyorasida oxirga 30-40 yil davomida o‘zgarishlar va yangilanishlar “raketa teziligi” singari oldinga odimlomoqda. Dunyo buyuk o‘zgarishlar pallasida. Bu jarayonni kimdlardir uni “axbarot” asri, kimlardir “Kompyuter” asri, boshqa birovlar esa “Globallashuv” davri deb atamoqdalar.

Amerikalik kelajakshunos olim E.Tofler ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, kelajak bugungi kun ustiga shitob bilan bostirib kelayotgan bu davr qadriyat, an’ana, milliy madaniyat, did singari tushunchalarni, binobarin ular haqidagi tasavvurlarni keskin o‘zgartirib yubormoqda. Bugunning natijasida hech kimga o‘xshamagan va xech qaysi risolaga to‘g‘ri kelmaydigan, bizdan hayot va abadiyat, makon va zamon, odob va axloq, yovuzlik va ezgulik, halollik va jumardlik haqidagi tasavvurlarni ham o‘zgartirishni talab qilayotgan “virtual avlod” shakllanmoqda. “Ommaviy madaniyat”, tub mohiyatiga ko‘ra, milliy

https://wordlyknowledge.uz

madaniyatning kushandasi bo‘lib, u madaniy xilma- xillikni hushlamaydigan, uning asl maqsadi- bu olamni yakrang ko‘rishdadir. “Ommaviy madaniyat” ssenariysining asosiy “muallifi” sanalgan Amerika Ko‘shma Shtatlarida madaniyatlar uyg‘unligi orqali millatlar o‘rtasidagi tafovut “devori”ni yiqitish borasida to‘plangan boy tajriba shundan dalolat beradi. “Yagona millat”- “amerikalik” degan tushunchaning vujudga kelishi uchun olib borilgan uzoq muddatli mafkuraviy kurash alaloqibat xalqni birlashtirdi. Ammo bu “muvaffaqiyat” o‘nlab-yuzlab millat vakillarining o‘zligidan mosuvo etilishi, tub joy aholi-hindularning butunlay “yutilib” ketishi hisobiga yuz berdi.

“Ommaviy madaniyat”ning yovuzligi shundaki, u odamzodning fikrlashiga tish-tirnog‘i bilan qarshi.

To‘g‘ri bir qarashda “ommaviy madaniyat” hurfikrlilik, inson erki tarafdoridek ko‘rinadi, lekin barcha “ilmu- amali”ning negziga, asosiga e’tibor berilsa, insonning fikrlashiga, tafakkur qilishiga zid ekani ayon bo‘ladi.

Shunday ekan, insonni komillikka eltuvchi asosiy omil odob-axloqdir. Millat manfaatlarini o‘z manfaati, o‘z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O‘z vazifasini millatning kuniga yarash, og‘irini yengil qilishda ko‘radi.

“Ommaviy madaniyat” ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga butunlay zid bo‘lib, milliy ma’naviyatimizni yo‘qotishga qaratilgandir. Shunday ekan, hozirgi davrda mamlakatimizda yashayotgan har bir inson, ayniqsa yoshlar “ommaviy madaniyat” tahdidining ma’no-mazmunini chuqur anglab olmog‘i va unga qarshi turmog‘i g‘oyat muhimdir.

Shu nuktai nazardan ma’naviy tarbiya sohasida bo‘shliqqa aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Zero ma’naviy tarbiya jarayoni zamonning bugungi talablari hamda aniq chora-tadbirlar asosida, respublika ta’lim tizimining barcha bosqichlarida muntazam va uzluksiz olib borilishi darkor. Shu bilan birga, pedagog xodimlarning bugungi axbarotlashuv sharoitida ma’naviy tarbiya sohasida muhim vazifalari-hozirgi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga o‘quvchilarda ongli munosabatni, mustaqil fikrlashni, qabul qilingan axbarotlarni qayta ishlash orqali munosabatlarni tarbiyalash bilan bir vaqtda yurtimizda, dunyoda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishdan iboratdir.

Farzandlarimiz chet el “rok” qo‘shiqlarini tushinib tushinmay soatlab eshtishi uning so‘zlariga mazmun mohiyatiga tushunmay ommaviy tarizda raqsga bir birlariga taqlid qilishlari ularning ma’naviy olamiga salbiy ta’sir qilib bormoqda. Hozirda yoshlarni ma’naviy olamining shakillanishda Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlarning o‘rni beqiyosdir jumladan xalqaro maqom konkursining o‘tkazilishi, 2019 yilning 5-8-aprel kunlari xalqaro “Baxshichilik” festivalining bo‘lib o‘tishi yoshlarimizni ma’naviy dunyosini rivojlanishiga, milliy qadriyatlarimizni o‘rganishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib jahonda “ommaviy madaniyat” xurujlari yoshlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ularda mustaqil fikrlash va hayotiy nuqtai nazarning yetarlicha shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham

https://wordlyknowledge.uz

kompetensiviy yondashuvga asoslangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorda o‘quvchilarda umumadaniy kompetensiyani shakllantirish ustivor maqsadlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davrda yoshlarni ma’naviy-madaniy, axloqiy rivojlantirish ustivor maqsadga aylandi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ajdodlarimizning ko‘p asrlik ma’naviy merosiga murojaat qila boshlandi. Chunki bugungi kunga kelib ommaviy madaniyatning xurujlari ko‘lami kengaydi.

Insonning qadriyatlari, e’tiqodlari, dunyoqarashi, shou-biznes vakillarining maqsadlariga tobe’ bo‘lib qolmoqda. Bu o‘z navbatida o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish va nuqtai nazarini bayon qilish imkonimyatiga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘qituvchilar oldiga o‘zligini anglagan, o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mustaqil nuqtai nazariga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Xuddi shunday sifatlarga ega bo‘lgan jamiyat a’zolarigina ijtimoiy iqtisodiy madaniy taraqqiyotni ta’minlay oladi. Shu bilan bir qatorda inson shaxs sifatida faqatgina muayyan jamiyatda shakllana oladi. Shuning uchun ham faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lgan shaxsni shakllanitirishga pedagogik jamoatchilikning e’tiborini qaratish lozim.

O‘quvchilarda sog‘lom ma’naviy, madaniy dunyoqarashning shakllanishida ajdodlarning ko‘p asrlik tajribasi, pedagoglarning faoliyati, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, oilaviy an’analar, ta’lim mazmuni, shaxslararo ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muhit, global axborot oqimlari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham o‘quvchilar bilan ishlaydigan pedagoglar ularda sog‘lom ma’naviy madaniy dunyoqarashning shakllanishiga asos yaratadilar.

Bugungi kunda o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid faoliyati o‘ta mas’uliyatli bo‘lib, birinchi navbatda o‘quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi ob’ektiv nuqtai nazarni shakllantirishni talab qiladi. Shu ma’noda o‘qituvchi san’at va madaniyat ahli bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishi, bu sohadagi yangiliklarni o‘zlashtirgan bo‘lishi, vujudga kelgan vaziyatlarni har tomonlama chuqur tahlil qila olishi lozim. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan vazifalar nihoyatda murakkab. O‘qituvchi ma’lum ma’noda aktyor bo‘lishi kerak, lekin pedagog tomonidan amalga oshirilayotgan improvizatsiya jarayonida xatolarga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

Hozirgi vaqtga kelib, san’at, madaniyat, fan-texnika, iqtisodiyot kabi turli sohalarda jadal o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham o‘quvchi-yoshlarni yangi haqiqatlarni qabul qilishga o‘rgatish pedagogning muhim vazifasi hisoblanadi. Buning uchun o‘quvchilarda yangi voqeliklarga oid bilimlar va ulardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish lozim.

https://wordlyknowledge.uz

Ta’lim oldiga qo‘yilayotgan yangi talablar sirasiga: o‘quvchini bilim olishga o‘rgatish, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalanish kompetensiyasini hosil qilish.

Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar jamoasi ta’limni qadriyat sifatida qabul qilishi, yuksak darajada rivojlangan jamoa esa ta’lim jarayonining mahsuli ekanligini tushunib yetishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarda ommaviy madaniyatga nisbatan ob’ektiv nuqtai nazarni shakllantirish uchun yuksak axloq me’yorlarini ajdodlarimiz merosi vositasida singdira olishi davlat va jamiyatning ta’lim oldiga qo‘yayotgan asosiy vazifasi hisoblanadi.

Hayotning barcha sohalarida inson faoliyatiga nisbatan kuchli ehtiyoj mavjud. Bu ehtiyoj ijtimoiy munosabatlar, ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. O‘quvchi shaxsini o‘qituvchi faoliyati orqali shakllantirish mumkin. Bu o‘rinda o‘qituvchi ma’rifat tarqatuvchi ustoz, ma’naviyat targ‘ibotchisi, do‘st, hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zining shunday sifatlari bilan yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga hissa qo‘sha oladi.

O‘quvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash, ularda ommaviy madaniyatga nisbatan ob’ektiv nuqtai nazarni shakllantirish jarayoni ko‘pqirrali, murakkab pedagogik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘quvchi shaxsini shakllantirishda pedagog xizmatini bo‘rttirib yuborish ham kamaytirish ham mumkin emas. O‘qituvchilarda yosh avlod ongiga milliy va umminsoniy qadriyatlarni singdirish, ajdodlarimiz merosidan ularni bahramand qilish orqali madaniy boyliklarimiz haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ommaviy madaniyatning umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlari va salbiy xususiyatlarini ular ongiga yetkazish imkoniyati mavjud. Xuddi mana shu imkoniyatdan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagoglar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston demokratik fuqarolik jamiyatini ma’naviyatli yoshlar quradi. Shunday ekan, biz farzandlarimiz tarbiyasida hech qanday loqaydlik va beparvolikka yo‘l qo‘ymasdan:

-ularning ongida va qalbida ajdodarimizdan bizgacha yetib kelgan milliy musiqamizga, maqomga, baxshichilik san’atiga nisbatan ma’naviyat urug‘larini sochib, ajdodarimizga munosib farzand etib tarbiyalamog‘imiz;

-o‘zligini anglatmog‘i;

-dunyoqarashini rivojlantirish;

-mustaqil-erkin fikrlashini kuchaytirish;

-muloqat madaniyatini rivojlantirish;

-qabul qilingan axbarotlarni tahrir qilish va munosabatini bildirish;

-milliy mafkurani bosh va asosiy g‘oyalarini, milliy va mummilliy, umuminsoniy tamoyillarni hayotga tadbiq etishda faol ishtirok etish;

-g‘urur va iftixor bilan yashashga o‘rgatish;

-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

-o‘z imkoniyatlarini erkin namoyish etish;

https://wordlyknowledge.uz

- Vatanga, zaminga mexr-muxabbatli, sadoqatli, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan yashash;

-mafkuraviy, goyaviy, informatsion xurujlarga sobitlik bilan tura olishi;

-irodali, fidoiy va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish;

-jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish;

-Vatan taqdiri uchun mas’ullik, yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirish va hk...

Ana shundagina biz Vatan ravnaqi yo‘lidagi oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori. https://lex.uz

2. Zunnunov A., Tolipov O‘. Milliy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini shakllantirish. T.:Sharq. – 2006.

3. Богомаз М.В. Педагогические условия формирования гражданской позитсии учащихся / М.В.Богомаз // Методический портал «Гражданином быт обязан»

4. Маслоу А. Мотиватсия и личност. Питер: СПб., 2003. □□352 с.

5. Tojiboeva X.M. O‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida maktab, mahalla va ota-onalar hamkorligi // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2017. - №4. – B.75-79.

https://wordlyknowledge.uz